



*Sohiba ZAKIROVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

*DSc, dotsent N. Alimova taqrizi asosida*

## MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING COMPENSATORY COMMUNICATIVE COMPETENCE IN LEARNING GERMAN AS A SECOND LANGUAGE

Annotation

This article explores contemporary pedagogical strategies for fostering compensatory communicative competence in students learning German as a second language. It examines how learners overcome challenges in communicative situations using various verbal and non-verbal techniques. The study also highlights the theoretical foundations of communicative competence, its core components, and the roles of both teachers and students in language acquisition. Findings demonstrate the importance of compensatory competence in enhancing the effectiveness of language learning and provide practical recommendations for applying modern teaching methods.

**Key words:** Compensatory competence, communicative competence, second language, german language, pedagogical approach, language learning strategies.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ КОМПЕНСАТОРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО ИНОСТРАННОГО

Аннотация

В статье рассматриваются современные педагогические подходы к развитию компенсаторной коммуникативной компетенции у студентов, изучающих немецкий язык как второй иностранный. Исследуется, как учащиеся преодолевают трудности в коммуникативных ситуациях, используя различные вербальные и невербальные стратегии. Также освещаются теоретические основы коммуникативной компетенции, её ключевые компоненты, а также роль преподавателя и студентов в процессе овладения языком. Результаты исследования демонстрируют важность компенсаторной компетенции для повышения эффективности изучения языка и содержат рекомендации по применению современных методических подходов.

**Ключевые слова:** Компенсаторная компетенция, коммуникативная компетенция, второй иностранный язык, немецкий язык, педагогический подход, стратегии изучения языка.

## NEMIS TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISHDA KOMPENSATOR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Аннотация

Maqolada ikkinchi chet til sifatida nemis tilini o'rgatishda kompensator kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarning nutqiy vaziyatlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engib o'tish ko'nikmalari, turli verbal va nonverbal strategiyalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya nazariyasi, uning asosiy tarkibiy elementlari va o'qituvchi hamda o'quvchining roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari kompensator kompetensiyaning til o'rganish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi va zamonaviy metodik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** Kompensator kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ikkinchi chet tili, nemis tili, pedagogik yondashuv, til o'rganish strategiyalari.

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki shaxsning intellektual va madaniy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ikkinchi chet tili sifatida nemis tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning til kompetensiyalarini kompleks ravishda shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda nafaqat leksik va grammatik bilimlarni egallash, balki muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etish qobiliyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompensator kompetensiya aynan shunday qobiliyatlarni o'z ichiga olib, til yetishmovchiligi sharoitida fikrni yetkazish uchun turli strategiya va usullardan foydalanishni anglatadi. Ushbu kompetensiya o'quvchilarga lug'at boyligi cheklangan holatlarda ham muloqotni davom ettirish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish va kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kompensator kompetensiyani rivojlantirish ikkinchi chet tilini samarali o'zlashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xorijiy tillarni o'qitish sifati va

samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, mamlakat rahbarining ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va tashabbuslarida yoshlarning xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirishi, ularning xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar bo'lib shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish zaruratini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - ikkinchi chet tili sifatida nemis tilini o'qitish jarayonida kompensator kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida ushbu kompetensiyani shakllantirishda qo'llaniladigan innovatsion metod va texnologiyalarning o'rni va ahamiyati ham o'rganiladi.

Tadqiqot vazifalari sifatida kompensator kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik usullarni tahlil qilish hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini asoslash belgilangan. Ushbu tadqiqot natijalari ikkinchi chet tilini o'qitish amaliyotini takomillashtirishda, ayniqsa nemis tilini o'rgatish jarayonida

kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ikkinchi chet tilini o'qitish jarayonida kommunikativ va kompensator kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktika sohasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar orasida Rahmonov A.ning ishlari alohida ahamiyatga ega.

Rahmonov A.ning "Nemis tilini o'rganishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish" mavzusidagi maqolasida O'zbekiston ta'lim tizimida kommunikativ yondashuvning joriy etilishi masalasi keng yoritilgan. Muallifning ta'kidlashicha, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish tizimi bosqichma-bosqich xalqaro standartlar asosida takomillashtirilmoqda. Jumladan, 2013-yilda qabul qilingan Prezident qarori asosida chet tillarini o'qitish tizimiga CEFR — "Common European Framework of Reference for Languages" mezonlari joriy etilgan bo'lib, bu xorijiy tillarni o'qitishda yagona baholash va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan [1].

Muallif ushbu tizimning joriy etilishi natijasida o'quvchilarning til o'rganish jarayoni aniq bosqichlarga ajratilganini, har bir bosqichda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini qayd etadi. Shuningdek, CEFR mezonlari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish o'quvchilarning real muloqot sharoitida tilni qo'llash qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Rahmonov A. o'z maqolasida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasining ilmiy-nazariy asoslariga ham to'xtalib o'tadi. Xususan, u ushbu atama ilk bor amerikalik tilshunos Dell Hymes tomonidan 1972-yilda ilmiy muomalaga kiritilganini ta'kidlaydi. Hymesning fikriga ko'ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash bilan cheklanib qolmaydi, balki uni ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri hamda maqsadga muvofiq qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu yondashuv til o'qitish metodikasida tub burilish yasab, kommunikativ yondashuvning shakllanishiga asos bo'lgan.

Shuningdek, muallif Canale va Swain (1980) tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya modeliga alohida e'tibor qaratadi. Ularning konsepsiyasiga ko'ra, kommunikativ kompetensiya to'rt asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya hamda strategik (kompensator) kompetensiyani o'z ichiga oladi. Rahmonov A. ushbu tarkibiy qismlar o'zaro uzviy bog'liq holda til o'rganish jarayonida shakllanishini va ayniqsa strategik kompetensiya o'quvchilarga muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishini asoslab beradi.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda ikkinchi chet tili sifatida nemis tilini o'qitish jarayonida kompensator kompetensiyani shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ko'rib chiqildi. Tadqiqotning metodologik negizini kommunikativ yondashuv, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda interfaol metodlardan foydalanish tashkil etadi.

Ish jarayonida Zakirova Soxibaning ilmiy qarashlari muhim nazariy tayanch sifatida e'tiborga olindi. Muallif tomonidan ilgari surilgan fikrlarga ko'ra, kompensator kompetensiyani rivojlantirish talabalarda mavjud til bilimlaridagi kamchiliklarni turli kommunikativ vositalar yordamida bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liqdir. Ushbu yondashuv tadqiqot yo'nalishini belgilashda asosiy omillardan biri bo'ldi [2].

Tadqiqotda asosan induktiv yondashuvdan foydalanildi, ya'ni amaliy kuzatuvlar va ilmiy manbalarni o'rganish asosida umumiy xulosalarga kelindi. Shu bilan birga, nazariy tahlil, taqqoslash, kuzatish kabi usullar ham qo'llanildi. Nazariy tahlil orqali kompensator kompetensiyaning mazmuni ochib berildi, taqqoslash yordamida esa turli metodik qarashlarning o'ziga xos jihatlarini aniqlashirildi.

Tadqiqot davomida kompensator kompetensiya talabalarning real muloqot jarayonidagi faoliyati bilan bog'liq holda o'rganildi. Xususan, notanish so'zlarga duch kelganda yoki grammatik jihatdan murakkab holatlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda qo'llaniladigan usullar tahlil qilindi. Bu jarayonda parafrazlash, sinonimlardan foydalanish, tushunchani izohlab berish hamda kontekst orqali ma'noni anglash kabi strategiyalar asosiy e'tibor markazida bo'ldi [3].

Shuningdek, tadqiqotda talabalarning avvalgi til tajribasidan foydalanish imkoniyatlari ham hisobga olindi. Ikkinchi chet tilini o'rganishda ilgari shakllangan bilim va ko'nikmalarni yangi til muhitiga moslashtirish jarayoni muhim omil sifatida qaraldi. Bu esa kompensator kompetensiyani shakllantirishda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

O'qituvchining roli ham alohida yoritildi. Dars jarayonida pedagogning talabalarni erkin fikrlashga yo'naltirishi, ularni faol muloqotga jalb qilishi hamda xatolarga to'g'ri munosabatni shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalar o'z fikrini bemalol ifoda etishiga va kommunikativ faollikning oshishiga xizmat qiladi [4].

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni aniqladi, ikkinchi chet tili sifatida nemis tilini o'rgatish jarayonida kompensator kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning muloqotdagi faolligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Til o'zlashtirish davomida yuzaga keladigan tabiiy qiyinchiliklar, ayniqsa so'z boyligi yoki grammatik bilimlarning yetarli emasligi ayrim hollarda o'quvchilarning muloqotdan chekinishiga olib keladi. Shunday vaziyatlarda kompensator kompetensiya fikrini uzluksiz ifodalash va muloqotni davom ettirish imkonini beruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ma'lum bo'lishicha, kompensator kompetensiya faqat nazariy tushuncha bo'lib qolmasdan, amaliy ko'nikmalar shaklida rivojlantirilishi zarur. Buning uchun dars jarayonida turli kommunikativ strategiyalarni bosqichma-bosqich o'rgatish muhimdir. Jumladan, fikrni boshqacha ifodalash, ma'nodosh so'zlardan foydalanish, tushunchani sodda qilib tushuntirish yoki vaziyatdan kelib chiqib ma'noni taxmin qilish kabi usullar o'quvchilarning nutqiy moslashuvchanligini kuchaytiradi [5].

Tadqiqot davomida aniqlandi, o'qituvchining tutgan o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida yaratilgan erkin muhit, o'quvchilarga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi munosabat ularning o'z fikrini bemalol bayon etishiga yordam beradi. Natijada o'quvchilar xatodan cho'chimay, muloqotga faolroq kirishadi va mavjud bilimlaridan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, ikkinchi chet tilini o'rganishda avvalgi til tajribasining ahamiyati ham e'tibordan chetda qolmadi. O'quvchilar birinchi o'rgangan til orqali shakllangan ko'nikmalarini yangi tilga moslashtira olganda, o'zlashtirish jarayoni ancha yengillashadi. Bu holat kompensator kompetensiyaning tezroq shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

Birinchidan, nemis tilini o'qitishda kompensator kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish va uni dars mazmuniga muntazam ravishda kiritish lozim.

Ikkinchidan, mashg'ulotlarda rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va hayotiy topshiriqlardan keng foydalanish o'quvchilarning muloqotga kirishish qobiliyatini oshiradi.

Uchinchidan, pedagoglar uchun kompensator strategiyalarni o'rgatishga qaratilgan amaliy qo'llanmalar va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, o'quvchilarning xatolariga nisbatan ijobiy va sabrli munosabatni shakllantirish orqali ularning erkin fikr bildirishiga sharoit yaratish zarur.

Beshinchidan, zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish orqali kompensator kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Umuman olganda, kompensator kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar nemis tilini o'qitish

samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning real muloqot vaziyatlarida o'zini erkin tutishiga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Rahmonov Asror ibni Nusrat. Nemis tili o'rganishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari jurnali, Vol. 16 No. 02 (2025) 225-228- betlar.
2. Закирова С.А. Методика формирования компенсаторной коммуникативной компетенции у студентов в процессе обучения немецкому языку как второму иностранному с опорой на современные педагогические подходы. IIm fan yangiliklari konferensiyasi. Vol. 14 No. 1 (2026) 530-bet.
3. Sh.I.Musayeva. Kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar yordamida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. Образование, наука и инновационные идеи в мире. Vol.18, No 2.(2023) 96-b.
4. Перевышко, А. И. Коммуникативный подход и коммуникативная компетенция в обучении иностранному языку. — Эпомен, 2022.
5. В.М. Бухаров Т.П. Кеслер. Немецкий для начинающих. Самоучитель. — М. Ин. язык, 2001. 417-с.
6. С.А. Матвеев. Самоучитель немецкого языка. -М: Издательство АСТ, 2020. 296-с.
7. Д.А. Листвин. Полный курс немецкого языка. - М: АСТ,2015
8. Н.Х. Савельева. Немецкий язык. - Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2015.
9. Михаленко А.О., Базовый курс немецкого языка за 16 занятий. 2014.
10. Muhammadjon Xodjaev, Mavluda Qahhorova. Chet tili o'g'itish metodikasi. -Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012.